

Boburiylar davri me'morchiligi va miniatyuralarda Temuriylar davri an'analarining davomiyligi

Joriy yil 6-sentabr kuni O'zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 28 yilligiga bag'ishlab "Boburiylar davri me'morchiligi va miniatyuralarda Temuriylar davri an'analarining davomiyligi" ko'rgazmasi tashkil etildi.



Ushbu ko'rgazmaning assosiy maqsadi me'moriy obidalarning ko'rinishlari, ularning miniatyuralarda aks etganligi, koshinlardagi naqsh bezaklari, minoralarning o'xshash jihatlari, ulardagi bog'lar tasviri, naqshlarning bir-biriga yaqinligi, chorbog'lar ko'rinishlari, pavilonlar tasvirlarining qiyosiy solishtirish orqali Boburiylar davri me'morchiligidagi Temuriylar davri an'analarining davom etganligini ochib berishga xizmat qiladi. Ko'rgazma rassom va olima N.Gilmanovaning ilmiy-tadqiqotlari natijalari asosida tashkil etilgan bo'lib, unda 20 dan ortiq fotolar namoyish etildi. Ko'rgazma keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan bo'lib, Boburiylar davri me'morchiligi va miniatyuralarda Temuriylar davri an'analarining davomiyligi hozirgi kungacha saqlanib qolgan me'moriy obidalar va miniatyuralar orqali tasavvur qilish imkonini beradi.

